ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

OMBUDSMAN INSTITUTINI KUCHAYTIRISH ORQALI INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING YANGI MODELI

Jumayeva Sora Eshbo'ri qizi

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti talabasi

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20279462

"Umuminsoniy inson huquqlari qayerdan bosh-
lanadi? Ular insonlarning kundalik muammolari
va hayotidan boshlanadi"

Eleanor Roosevelt

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasida 1995-yilda tashkil etilgan Ombudsman instituti faoliyatiga so'nggi yillarda konstitutsiyaviy va qonunchilik islohotlari orqali o'zgartirishlar kiritildi . Ushbu maqola institutning Parij tamoyillariga asoslanish zaruriyatini, "B" status sabablarini va 2020–2025 yillarda amalga oshirilgan islohotlarning samaradorligini tahlil qiladi. GANHRI[1] (Global Alliance of National Human Rights Institutions) akkreditatsiya jarayoni materiallari asosida "B" statusning asosiy cheklovlari aniqlangan bo'lib, Sloveniya tajribasi misolida O'zbekiston uchun real strategik yo'l xaritasi taklif etiladi. Maqola tahlili natijasida, moliyaviy mustaqillikni ta'minlash, resurslarni oshirish va vakolatlarni kengaytirish orqali O'zbekiston yaqin 2–3 yil ichida "A" statusga erishishi mumkin. Bu nafaqat xalqaro tan olinish, balki milliy inson huquqlari himoyasining sifatini oshirish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Ombudsman instituti, Parij tamoyillari, GANHRI akkreditatsiyasi, "A" va "B" status, inson huquqlari institutlari, Sloveniya islohotlari.

Zamonaviy demokratik jamiyatlarda inson huquqlarini himoya qilishning eng samarali mexanizmlaridan biri milliy inson huquqlari institutlari hisoblanadi. Ombudsman tizimi parlament nazorati doirasida fuqarolarning huquqlarini himoya qiluvchi muhim institutsional mexanizm hisoblanadi[2]. Ombudsman instituti ilk bor 1809-yil Shvetsiyada fuqarolar huquqlarini himoya qilish va davlat hokimiyatining, ayniqsa, ijroiya hokimiyati – qirol va uning amaldorlari qonunbuzarliklarini nazorat qilish maqsadida ta'sis etilgan[3].

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda Ombudsman institutini kuchaytirish va uning faoliyatini takomillashtirish bo'yicha bir qator muhim islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlar institutni faqat shikoyatlar bilan ishlaydigan organ darajasidan chiqarib, faol, mustaqil va samarali inson huquqlari himoya mexanizmiga aylantirishga qaratilgan. 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumi orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquqlari va erkinliklariga oid normalar soni oldingi Konstitutsiyaga nisbatan uch baravar ko'paytirildi. Ombudsman institutiga konstitutsiyaviy maqom berildi.


Eng muhim yangilik bu Ombudsman instituti qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'ldi. Ya'ni, yuz ming nafardan kam bo'lmagan fuqarolar bilan birgalikda u to'g'ridan-to'g'ri Qonunchilik palatasiga qonun loyihalarini kiritishi mumkin (Konstitutsiya, 98-modda)[4].

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida"gi Qonun 2024 -yil 15-noyabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi qonun Ombudsman

[1] Milliy ombudsman va inson huquqlari institutlarining global "uyushmasi" bo'lib, ularni xalqaro standartlarga ya'ni Parij tamoyillariga moslashtirish va BMT bilan hamkorlikni ta'minlash bilan shug'ullanadi.
[2] https://ombudsman.uz/uz
[3] https://m.aniq.uz/uz/yangiliklar/oliy-talimda-ombudsman
[4] https://lex.uz/docs/-6445145

institutining huquqiy asosini yaratdi va qonun doirasida institutning vakolatlari kengaytirildi. O‘z tashabbusi bilan tergov o‘tkazish huquqini kuchaytirildi, qiynoqqa qarshi milliy preventiv mexanizmi yanada mustahkamlandi va xalqaro hamkorlik va inson huquqlari bo‘yicha ta’lim, ma’rifiy faoliyatni rivojlantirishni belgilab berdi[5].

Shuningdek, O’zb Res Prezidentining 2021-yil 26-iyun PQ-5163-son “Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori va O’zb Res Prezidentining 2021-yil 10-sentabr PF-6312-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Natijada 2024-yilda Ombudsmanga 23 422 ta, 2025-yilda esa 26 372 ta murojaat kelib tushgan. Murojaatlar sonining o‘sishi institutning fuqarolar orasida ishonchining ortayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, 14ta hududiy, mintaqaviy vakillar tarmog‘i va raqamli murojaat tizimining joriy etilishi institutning hududiy qamrovini kengaytirdi[6].




7

Ombudsman institutiga ko’proq fuqarolar va ayollardan murojaatlar kelib tushadi.

BMTning 1993-yilda qabul qilgan Parij tamoyillari bugungi kunda milliy inson huquqlari institutlarining xalqaro standartlarini belgilovchi asosiy hujjati hisoblanadi. O‘zbekistondagi Ombudsman instituti MDH hududida birinchilardan bo‘lib tashkil etilgan bo‘lsa-da, 2021-yildan beri Global Alliance of National Human Rights Institutions (GANHRI) tomonidan “B” status bilan baholanib kelinmoqda. Parij tamoyillari moliyaviy mustaqillik,plyuralizm,samaradorlik kabi ko’plab tamoyillarni o’z ichiga olib, shu tamoyillar asosida davlatlar baholanadi.

Classification	Number of reviewed institutions
A - status	78
B - status	33
C - no status	10
Total	121



8

[5] https://www.xabar.uz/uz/mahalliy/ombudsman-togrisidagi-qonun-imzolandi
[6] http://nhrc.uz/oz/news/m12559
[7] https://ombudsman.uz/oz/tag/humanrights
[8] https://ombudsman.uz/oz/tag/humanrights

GANHRI ning 2025-yil dekabrdagi hisobotiga ko‘ra, O‘zbekiston Ombudsman institutiga yana “B” status berilgan. SCA[9] (Sub-Committee on Accreditation) hisobotlarida “B” status berilish sabablari va asosiy cheklovlar sifatida quyidagilar ko‘rsatilgan:

Ombudsman institutining byudjeti hali ham ijro etuvchi hokimiyat tomonidan taqsimlanadi va nazorat qilinadi. Bu holat institutning hukumat qarorlaridan mustaqil ravishda faoliyat yuritish imkoniyatini cheklaydi. Parij tamoyillarining birinchi va eng muhim talabi — moliyaviy mustaqillik bo‘lib, institut byudjeti parlament orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri ajratilishi va ijro etuvchi hokimiyat aralashuvidan himoyalangan bo‘lishi kerak.

Ombudsman institutining markaziy apparati shtati rasmiy ravishda 18 ta birlik bilan cheklangan. Bu rahbar, o‘rinbosarlari, devon rahbari va bir necha sektor mudirlarini o‘z ichiga oladi. Bunday cheklangan shtat katta hajmdagi murojaatlarni (2024-yilda 23 422 ta, 2025-yilda 26 372 ta) chuqur va sifatli ko‘rib chiqishga imkon bermaydi. Parij tamoyillarining “samaradorlik” talabi institutning yetarli resurs va kadrlar bilan ta’minlangan bo‘lishini talab qiladi.

Ombudsman chiqargan xulosalar, taqdimnomalar va tavsiyalar davlat organlari uchun majburiy emas, faqat tavsiya xarakteriga ega hisoblanadi. Bundan kelib chiqib, davlat idoralari bu tavsiyalarni bajarish yoki bajarmaslik huquqiga ega bo’ladi. Parij tamoyillari institutning samarali ta’sir mexanizmlariga ega bo‘lishini talab qiladi. SCA hisobotlarida bu holat institutning “samaradorlik” talabiga javob bermayotganligining asosiy sabablaridan biri sifatida ko‘rsatilgan. Natijada, ko‘plab huquq buzilishlari tavsiya bilan cheklanib qolmoqda.

Ombudsman o‘z tashabbusi bilan tergov o‘tkazish va tizimli monitoringni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lsa-da, bu mexanizmlar amalda yetarli darajada samarali ishlamaydi. Monitoring tashriflari soni cheklangan, tergovlar chuqur o‘tkazilmaydi va tizimli muammolarni bartaraf etishda zaiflik kuzatiladi.

Bu omillar institutning Parij tamoyillarining mustaqillik va samaradorlik talablariga to‘liq javob bera olmasligini ko‘rsatadi[10]. Ushbu sabablardan kelib chiqib, qisqa vaqt ichida B statusdan A statusga o’tgan Sloveniya davlatining islohotlari va qilgan ishlari tahlil qilinadi. Sloveniya davlatida Inson huquqlari Ombudsman instituti GANHRI tomonidan “B” statusda bo‘lgan. 2020-yil oxiri va 2021-yil boshida o‘tkazilgan baholash natijasida institut “A” statusga muvaffaqiyatli o‘tgan. Bu o‘tish Sloveniya uchun muhim yutuq bo‘lib, O‘zbekiston kabi “B” statusdagi davlatlar uchun amaliy va real misol hisoblanadi[11]. Sloveniya davlatida Ombudsman instituti 1993-yilda tashkil etilgan, 2000-yilda birinchi marta akkreditatsiyadan o‘tgan va “B” status olgan. SCA (Akkreditatsiya bo‘yicha Quyi Qo‘mita) doimiy ravishda moliyaviy mustaqillik, plyuralizm, fuqarolik jamiyati vakilligining yetarli emasligi va resurslar yetishmasligini asosiy muammolar sifatida ko‘rsatgan[12].Sloveniya hukumati va Ombudsman o‘zi faol tashabbus ko‘rsatib, bir qator muhim qonuniy o‘zgartirishlarni amalga oshirdi. Eng muhim qadam 2017-yilda qabul qilingan “Inson huquqlari Ombudsman instituti to‘g‘risida”gi Qonunga (Act Amending the Human Rights Ombudsman Act) o’zgartirish kiritishdan boshlangan:

2018-yilda Inson huquqlari Ombudsman Kengashi (Human Rights Ombudsman Council) tashkil etildi. Bu kengashga fuqarolik jamiyati, NNTlar, huquqshunoslar va ekspertlar vakillari kiritildi. Institutning shtati va moliyaviy bazasi kengaytirildi, yangi bo‘limlar ya’ni monitoring, ta’lim va xalqaro hamkorlik bo’limlari yaratildi[13]. B statusdan A statusga o’tish uchun islohotlar 2018-2020- yillar oralig’ida asosiy qonunini o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish orqali amalga oshirildi. SCA tomonidan

[9] GANHRI (Global Alliance of National Human Rights Institutions) tarkibidagi maxsus quyi qo‘mita bo‘lib, milliy inson huquqlari institutlarini (NHRI, masalan, Ombudsman) Parij tamoyillariga qanchalik mos kelishini baholaydi va ularga “A” yoki “B” status beradi.
[10] https://ganhri.org/wp-content/uploads/2025/12/Accreditation-Status-Chart_Dec2025.pdf
[11] https://ennhri.org/wp-content/uploads/2023/05/Slovenia-Country-Report-CoE-NHRI-Rec-ENNHRI-Baseline.pdf
[12] https://ganhri.org/wp-content/uploads/2021/12/StatusAccreditationChartNHRIs_dec2021.pdf
[13] https://ennhri.org/rule-of-law-report-2021/slovenia/

berilgan hisobot doirasidagi sabablar qonun orqali to'liq amalga oshirildi. Bu islohotlar Sloveniyada plyuralizm talabini to'liq qondirgan, institut samaradorligi oshgan va A statusga ega bo'lgan.

O'zbekistanda ham SCA tomonidan B status berilishining sabablarini o'rganib, Sloveniya davlati tajribasi asosida A statusga erishish bo'yicha moliyaviy mustaqillikka erishish, Ombudsman huzurida doimiy maslahat organi sifatida Fuqarolik jamiyati Maslahat Kengashi yaratish, Ombudsman tuzilmasi ichida alohida Inson huquqlari Markazi tashkil etish va o'z tashabbusi bilan tergov va monitoring vakolatlarini kuchaytirish ilohotlarini amalga oshirish uchun birinchi o'rinda "O'zb.Res Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida"gi qonuniga o'zgartirish kiritish hisoblanadi. Ya'ni qonunning 4- modda: Ombudsman faoliyatining asosiy prinsiplariga "moliyaviy va operatsion mustaqillik" prinsipini qo'shish. Shuningdek, 4-modda sifatida "Ombudsman byudjeti har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan alohida qaror bilan tasdiqlanadi va uning sarflanishi faqat Ombudsman tomonidan nazorat qilinadi. Ombudsman byudjetining hajmi va sarflanish tartibi Ombudsmanning taklifi asosida Oliy Majlis tomonidan belgilanadi" ushbu normani qo'shish kerak.

30-moddasiga "Ombudsman taqdimnomasi yuborilgandan keyin davlat organi yoki mansabdor shaxs 30 kun muddat ichida javob berishi va ko'rilgan choralar to'g'risida yozma axborot taqdim etishi shart. Javob berilmagan yoki tavsiya bajarilmagan taqdirda Ombudsman Oliy Majlisga maxsus hisobot taqdim etadi" degan yangi band qo'shish;

Ombudsmanning asosiy vazifalari, huquqlari, majburiyatlari va faoliyati kafolatlari deb nomlanuvchi 2-bobiga yangi "Ombudsmanning o'z tashabbusi bilan faoliyat yuritishi"

"Ombudsman inson huquqlari buzilishi haqida axborot olganda o'z tashabbusi bilan tergov o'tkazish huquqiga ega. Tegishli davlat organlari, muassasalar va mansabdor shaxslar Ombudsmanning tergov doirasida talab qilinadigan hujjatlar, ma'lumotlar va tushuntirishlarni 10 (o'n) ish kuni muddat ichida taqdim etishi shart.

Ombudsman o'z tashabbusi bilan tergov o'tkazish tartibi ushbu Qonun va Ombudsman tomonidan tasdiqlangan nizom bilan belgilanadi" moddasini qo'shish;

Asosiysi, qonunga 9-bob "Inson huquqlari bo'yicha Maslahat Kengashi" deb nomlanuvchi yangi bob qo'shish. Bob Inson huquqlari bo'yicha Maslahat Kengashining asosiy vakolatlari, Kengash tarkibi va shakllanish tartibi, Kengashning huquqlari va faoliyat tartibi kabi normalarni o'z ichiga oladi. Yuqorida keltirilgan takliflar amalga oshirilsa, Ombudsman instituti yaqin yillar ichida B statusdan A statusga o'tadi.

O'zbekistonda Ombudsman instituti so'nggi yillarda sezilarli taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Biroq Parij tamoyillariga to'liq moslashish uchun birinchi navbatda "O'zb.Res Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida"gi qonuniga o'zgartirish kiritish, O'zgartirish doirasida moliyaviy mustaqillikni mustahkamlash, samaradorlikni oshirish masalalarini, shu bilan birga Inson huquqlari bo'yicha Maslahat Kengashini tashkil etish yuzasidan masalalarni hal etish zarur hisoblanadi. Sloveniya tajribasidan kelib chiqib, aniq va muddatli strategiya ishlab chiqish ombudsman institutning "A" statusga o'tishini tezlashtiradi. Bu nafaqat xalqaro maydonda, balki milliy darajada ham inson huquqlarini himoya qilish sifatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida"gi Qonun
2. O'zb Res Prezidentining 2021-yil 10-sentyabr PF-6312-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon
3. O'zb Res Prezidentining 2021-yil 26-iyun PQ-5163-son "Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaror
4. https://www.jo.se/en/about-jo/history/

5. https://ombudsman.uz/oz/tag/humanrights
6. http://nhrc.uz/oz/news/m12559
7. http://www.insonhuquqlari.uz/oz/news/m12557
8. https://parliament.gov.uz/news/inson-huquqlari-sohasida-amalga-oshirilayotgan-islohotlar-etirof-etildi
9. https://toshkent-vil.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=55657
10. https://lex.uz/uz/docs/-7223219
11. https://www.xabar.uz/uz/mahalliy/ombudsman-togrisidagi-qonun-imzolandi
12. https://lex.uz/docs/-6445145
13. Accreditation-Status-Chart_Dec2025.pdf
14. StatusAccreditationChartNHRIs_dec2021.pdf
15. https://ennhri.org/wp-content/uploads/2023/05/Slovenia-Country-Report-CoE-NHRI-Rec-ENNHRI-Baseline.pdf
16. https://ennhri.org/rule-of-law-report-2021/slovenia/
17. https://ennhri.org/rule-of-law-report/slovenia/
18. https://ipcan.org/members/the-human-rights-ombudsman-of-the-republic-of-slovenia-3